

FARIDA AFRO`Z SHE`RIYATIDA FOLKLOR AN`ANALARI

Abdumo`min Mamtaliyev

ADU adabiyotshunoslik yo`nalishi, II bosqich magistranti

Iqbol Mirzo “Shoir o`z ixtiyori bilan o`ziga dard yuqtiradigan tabibga o`xshaydi.”¹ – deya ijod ahli vakillariga to`g`ri ta`rif bergan edi. Asarlarida so`zlarni marjon kabi tiza oluvchi, kishi ruhiyatida, ko`nglida taskin, hadik, iztirob, ishonch, sog`inch, orzu, sevgi, sadoqat kabi tuyg`ularni jonlantira oluvchi shunday ijodkorlardan biri Farida Afro`zdir.

Ma`lumki, badiiy adabiyot xalq og`zaki ijodidan boshlanadi. Shuning uchun ham har bir (lirik, epik, dramatik) turda uning sinkretizmi kuzatiladiki, bu hol asarning qimmatini oshiradi. Farida Afro`z ijodida ham xalq og`zaki ijodi namunalari uchraydi. O`z ijodida bunday namunalarni to`g`ri va o`rinli qo`llay olish ijodkorning mahoratidan darak beradi.

Shoiraning “Bu kunlar ham g`animat..” deya boshlanuvchi she`rida xalq og`zaki ijodidagi “Sabr qilsang, g`o`radan holva bitar” maqoli biroz boshqacha shaklda qo`llaniladiki, bu holni maqollardagi variantlilik sifatida qabul qilish mumkin:

*Sabr – olma gulladi,
Pishsa tiling yoradi.
Tosh yurakka kirguncha
Peshonalar qonadi –
Kel, ey, mening mensizim.*²

Yoki shoiraning yana bir “Kelsang, kelgin yoki xayr-xo`sh...” misralari bilan boshlanadigan she`rida barchaga ma`lum bo`lgan “Osmon yiroq, yer qattiq” maqoli qo`llanadi. Lirik qahramon suyuklisini sog`inmoqqa holi qolmagan, haddi, jasorati ulkan, ammo bu jasorat, bu mardlik ishq oldida hech:

*Kech kuzakning shamoli – fotih
Kamolidan zavoli ortiq.
Osmon yiroq, yer esa qattiq,
Sog`inmoqqa holim qolmadi.*³

“Qoch, begim, sor keldi” misrasi bilan boshlanuvchi she`rda kitobxon xalq qo`shiqlari ohangini sezadi:

*Sochim uzi qizg`aldoq,
Qulog`imda oy baldoq,
Dunyo esa kajraftor,*

¹ http://iqbol-mirzo.narod.ru/html/shoir_haqida.html

² Afro`z F. Ko`zim manim. T., “Adabiyot va san`at”. 1999. 11-b.

³ Afro`z F. Ko`zim manim. T., “Adabiyot va san`at”. 1999. 12-b.

Bu yog`i bo`lar qandoq?!

qoch, begim, sor keldi.⁴

She`rdagi kajraftor deya dunyoga berilgan ta`rif an`anaviy sifatlashdir. Charxi kajraftor birikmasi shoira ijodida bot-bot takrorlanadi. Masalan, uning shoir Abdulla Oripovga bag`ishlangan she`rida ham bu holni ko`rish mumkin:

*Aylanadi dunyo kajraftor,
Ko`z o`ngimda, guvohman o`zim,
Qiyomat kun o`qisa sizni,
Dajjollarga kiradi to`zim.⁵*

Ma`lumki, maqollarda hajm cheklangani bilan, ma`no ko`lami keng bo`ladi. Ayni shu xususiyat ularning lirik asarlarda qo`llanish imkoniyatini kengaytiradi. Farida Afro`zning “Gar yigitning gulisan, Ko`rgilikning qulisan” naqarotli she`rida ham “Boshing osmonga yetsa ham, oyog`ing yerda bo`lsin” maqolining varianti qo`llanganini ko`rish mumkin:

*Boshing yetsa osmonga,
Salom qilgin ketmonga,
Seni malak tuqqanmas,
Ko`ylak obber onangga –
Gar yigitning gulisan,
Ko`rgilikning qulisan.⁶*

Bu kabi misollarni shoiraning boshqa she`riy to`plamlaridan joy olgan she`rlarida ham uchratamiz. Muhimi, har bir qo`llangan folklor an`analari lirik asar yaxlitligini ta`minlagan, she`rlarning ta`sirchanligini, ritmik ohangini oshirishga xizmat qilgan.

⁴ Afro`z F. Ko`zim manim. T., “Adabiyot va san`at”. 1999. 44-b.

⁵ Afro`z F. Ko`zim manim. T., “Adabiyot va san`at”. 1999. 68-b.

⁶ Afro`z F. Ko`zim manim. T., “Adabiyot va san`at”. 1999. 62-b.